№6/2026



ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ISSN 2181-4309

MUSIQA TA'LIMI TIZIMIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHNING BUGUNGI HOLATI VA MUAMMOLARI

Qurbonaliyeva Maftunabonu Murodjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.
Ushbu maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "Musiqa ta'limi" yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati va undagi metodik hamda tarkibiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida raqamli komponentlarning tanlov fanlari blokiga surilib qolganligi hamda zamonaviy AKT ko'nikmalarini shakllantirishdagi uzilishlar aniqlangan. Maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish, o'quv jarayoniga raqamli ovoz ishchi majmualarini hamda PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarini integratsiya qilish bo'yicha amaliy ilmiy – pedagogik tavsiyalar ilgari surilgan.
Kalit so'zlar:
Musiqa ta'limi, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetentlik, o'quv reja, raqamli texnologiyalar, xalqaro baholash dasturlari, PISA, STEAM ta'lim, pedagog.

Аннотация.
В данной статье анализируется современное состояние, а также методические и структурные проблемы подготовки будущих учителей по направлению «Музыкальное образование» в педагогических высших образовательных учреждениях. В ходе исследования выявлено смещение цифровых компонентов в блок элективных (выборочных) дисциплин и разрывы в формировании современных ИКТ-компетенций. В статье выдвигаются практические научно-педагогические рекомендации по повышению профессиональной компетентности будущих учителей музыки, интеграции в образовательный процесс цифровых звуковых рабочих станций (DAW) и международных программ оценивания, таких как PISA, TIMSS, PIRLS.
Ключевые слова:
Музыкальное образование, будущий учитель, профессиональная компетентность, учебный план, цифровые технологии, международные программы оценивания, PISA, STEAM-образование, педагог.

Abstract.
This article analyzes the current status, as well as the methodological and structural problems of training future teachers in the field of "Music Education" within pedagogical higher education institutions. The study identifies gaps in the formation of modern ICT skills and highlights that digital components are disproportionately pushed into the block of elective courses. Furthermore, the paper proposes practical scientific and pedagogical recommendations for enhancing the professional competence of future music teachers, integrating digital audio workstations (DAWs) into the educational process, and incorporating international assessment programs such as PISA, TIMSS, and PIRLS.
Keywords:
Music education, future teacher, professional competence, curriculum, digital technologies, international assessment programs, PISA, STEAM education, pedagogue.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning ma'naviy – estetik tarbiyasida musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilari zimmasiga nafaqat nazariy bilim berish, balki o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish vazifasi ham yuklatilgan. Biroq, zamonaviy axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi va ta'limga bo'lgan talabning o'zgarishi kadrlar tayyorlash tizimida bir qator ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son Qonuni hizmat qimoqda.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi – musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarini tayyorlashdagi uzilishlarni aniqlash va ularning kasbiy kompetentligini oshirish yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarning faoliyat turlaridan eng muhimi o'quv faoliyatida samarali natijadorlik hisoblanadi. Shu maqsad barobarida, o'quv faoliyati jarayonida va uning

ISSN 2181-4309

yordamida mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy maqsadga erishiladi. O‘quv jarayoni talabalarni kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalar va kompetensiyalar bilan qurollantirishda samarali ta’sir etadi. Pedagogika sohasida ta’lim olayotgan talabalarga kasbiy fidoiylikni, kelajakda uning mehnat faoliyatida qulayliklar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-901-son “Pedagog maqomi” to‘g‘risida 01.02.2024 yildagi qonuni qabul qilingan. Qonunning 3-moddasida “Ta’lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta’lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxs pedagogdir”[2] – deb belgilangan. Shuningdek, 6-moddasida esa Pedagog huquqlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiga bo‘lgan fidoiyligini va ishonchini oshirishga hizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son farmonida 2022-2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlangan. Bunda maktab ta’limini rivojlantirish maqsadida ko‘plab qulayliklar va aniq maqsadlar belgilangan. Hozirgi zamonaviy pedagogikada o‘quv faoliyati sinfda (auditoriya), mustaqil va auditoriyadan tashqari faoliyatlarga bo‘linadi. O‘quv – tarbiyaviy jarayon tizimida bu faoliyat turlari o‘quv jarayonini tashkil qilishning asosiy shakllari tarzida belgilangan. Auditoriyadagi o‘quv faoliyati o‘zlashtirilayotgan fanlarning o‘quv rejasi va dasturi orqali aniqlanadi va o‘qituvchi rahbarligi ostida o‘quv jarayoniga mos keluvchi qat’iy jadval bilan amalga oshiriladi. Auditoriyadan tashqari ya’ni mustaqil ta’lim jarayoida talaba berilgan topshiqir asosida olgan bilimlarini mustahkamlab boradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda mamlakatimizdagi pedagogika institutilarida joriy etilgan 3 yillik bakalavriat kunduzgi ta’lim shakli 60110600 – Musiqa ta’limi yo‘nalishining amaldagi rasmiy o‘quv rejasi obyekt sifatida olindi. Mazkur o‘quv rejasida jami o‘quv yuklamasi 5400 akademik soatni tashkil etib, u 180 ECTS krediti hajmida belgilangan. O‘zbekiston Respubliksai Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 824 – son qarori 4 – bob, 15 – bandida “...Kredit – modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25 – 30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda – 40 – 50% auditoriya soati, 50 - 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada – 30% – 4 0% auditoriya soati, 60 – 70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi miqdori oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta’lim muassasasi veb – sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.” [4] – deb belgilangan.

Tadqiqot jarayonida mamlakatimizdagi pedagogik oliy ta’lim muassalari o‘quv yuklamalarining taqsimoti, fanlar tarkibi va ularning bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi kompetensiyalariga mosligini aniqlash maqsadida miqdoriy va sifat jihatidan o‘rganish metodi qo‘llanildi. O‘quv rejasidagi fanlar o‘rganishni tizimlashtirish uchun o‘quv yuklamasi taqsimoti jadvali asosida 4 ta asosiy tarkibiy qismga ajratildi:

1. Majburiy fanlar bloki: 3720 soat (124 kredit)

2. Tanlov fanlari bloki: 660 soat (22 kredit)
3. Malakaviy amaliyot tizimi: 840 soat (28 kredit)
4. Davlat attestatsiyasi (BMI): 180 soat (6 kredit).

Olingan empirik ko‘rsatkichlar rivojlangan xorijiy davlatlar bilan taqqoslanib, unda axborot texnologiyalari va amaliy pedagogik integratsiyaning o‘rni tahlil qilindi.

Natijalar. Andijon davlat pedagogika instituti “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi o‘quv rejasining umumiy miqdoriy tarkibiy qismlari kontent-analiz qilinganda quyidagi aniq raqamlar aniqlandi (1-jadval):

1-jadval. O‘quv yuklamasining tarkibiy qismlar bo‘yicha taqsimoti

№	Yuklamalar taqsimoti	Soat hajmi	Kredit miqdori	Umumiy ulushi %
1	Majburiy fanlar	3720	124	68,9%
2	Tanlov fanlar	660	22	12,2%
3	Malakaviy amaliyot	840	28	15,6%
4	Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	3,3%
	Jami:	**5400**	**180**	**100%**

O‘quv rejasini semestrlar va fanlar kesimida tahlil qilish natijasida quyidagi tizimli xususiyatlar va nomutanosibliklar aniqlandi: Raqamli komponentlarning tanlov fanlariga surilganligi: Tadqiqot obyekti uchun eng muhim amaliy raqamli vosita hisoblangan “NKD12604 – Notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash” fani 120 soat, 4 kredit majburiy blokga kiritilmagan. U o‘qishning eng so‘nggi bosqichi 6 – semestrda tanlov fani sifatida joylashtirilgan. Bu esa talabaning ushbu zamonaviy ko‘nikmani egallamasdan ham oliygohni bitirib ketish xavfini yuzaga keltiradi. Shuningdek, 3 – semestrdagi “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fani ham majburiy emas, tanlov fani hisoblanadi.

An’anaviy ijrochilik blokining ustunligi: O‘quv rejasida akademlik yuqori. Birinchi kursning o‘zidayoq “Cholg‘u ijrochiligi va “An’anaviy xonandalik” fanlari jami 360 soatlik katta yuklama bilan majburiy blokni egallagan. 5 – semestrda ham “Vokal ijrochiligi” hamda “O‘zbek xalq musiqa ijodi” kabi an’anaviy fanlar majburiydir.

“4+2” amaliyot tizimining huquqiy joriy etilishi: O‘quv rejasining izoh qismida juda ijobiy tendensiya qayd etilgan: 5 – 6 semestrlarda o‘quv jarayoni 4+2 tartibida, ya’ni haftaning 4 kuni oliygohda nazariy ta’lim, 2 kuni esa maktabda malakaviy amaliyot shaklida tashkil etilishi qat’iy belgilangan. Malakaviy amaliyotga umumiy 840 soat (15,6%) ajratilgan.

O‘quv rejasining 4 – semestridagi majburiy “Ta’limda baholash” fani tarkibiga PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari modullari majburiy kiritilganligi ta’lim tizimining xalqaro tendensiyalarga moslashayotganidan dalolat beradi.

Muhokama. Olingan empirik ko‘rsatkichlar rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga qiyoslanganda, bugungi raqamli asr musiqa o‘qituvchisini tayyorlashda ma’lum bir metodik uzilishlar ko‘zga tashlanadi.

Zamonaviy umumta’lim maktablarida musiqa o‘qituvchisi nafaqat jonli xor dirijyori, balki raqamli dars ishlanmalari yaratuvchisi bo‘lishi ham shart. O‘quv rejada **“Notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash”** darsining tanlov fani sifatida faqat 6 – semestrga

ISSN 2181-4309

qo‘yilganligi, talabaning maktabga borgunga qadar maktab repertuarlarini kompyuter musiqa bezaklari shakliga o‘tkazish malakasini to‘liq shakllantirishga to‘sqinlik qiladi. Xalqaro tajribada masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlari oliy musiqa ta’limi NASM standartlarida talabalar 1 – kursdanoq Sibelius, Finale yoki DAW dasturlarida majburiy tartibda ishlaydilar.

Biroq, o‘quv rejasida “4+2” amaliyot tizimining belgilanishi hamda mustaqil ta’lim soatlarining bevosita amaliyot dasturlari mazmuni bilan bog‘lanishi – bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining maktab muhitiga moslashishini kafolatlaydi hamda O‘RQ-901-sonli “Pedagog maqomi to‘g‘risida”gi Qonun me’yorlarini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim o‘quv dasturlariga PISA “Programme for International Student Assessment”, TIMSS “Trends in International Mathematics and Science Study”, PIRLS “Progress in International Reading Literacy Study” va TALIS “Teaching and Learning International Survey” kabi xalqaro baholash mezonlarining integratsiya qilinishi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilaridan yangicha yondashuvni talab etadi. Musiqa ta’limi yo‘nalishida PISA tamoyillarini tatbiq etish – talabalarning darsda olgan nazariy bilimlarini real maktab amaliyotida qo‘llash yani funksional savodxonlik ko‘nikmasini anglatadi. Xususan, musiqiy matnlarning badiiy mazmunini teran anglash PIRLS o‘qish savodxonligi tizimi mezonlariga tayansa, nota cho‘zimlari va ritmik taktlarning o‘zaro mutanosibligini tahlil qilish TIMSS matematik savodxonlik tamoyillari bilan bog‘lanadi. Tovush to‘lqinlarining fizik xususiyatlari, akustika qonuniyatlari va ovoz apparatining biologik imkoniyatlarini ilmiy tushuntirish esa PISAning tabiiy – ilmiy savodxonlik mezonlariga mos keladi. Bunday fanlararo bog‘liqlik maktab darslarida zamonaviy **STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Math)** loyihalarini va integratsiyalashgan ta’lim muhitini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va raqamli texnologiyalarni pedagogik jarayonlarga keng joriy etish sharoitida bo‘lajak musiqa madaniyati o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifadir. Andijon davlat pedagogika instituti “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi o‘quv rejasini kontent – tahlil qilish jarayonida aniqlangan kuzatish *(empirik)* ko‘rsatkichlar va xalqaro qiyosiy o‘rganishlar asosida quyidagi yakuniy ilmiy – pedagogik xulosalar shakllantirildi:

Bo‘lajak o‘qituvchining poydevor kasbiy ko‘nikmasi hisoblangan an’anaviy cholg‘u ijrochiigi va vokal ijrochiligi soatlarini kamaytirmaslik yoki taqiqlamaslik zarur. Aksincha, ushbu an’anaviy darslarning mazmunini raqamlashtirish, ya’ni talabalarning cholg‘u darslarida ijro etayotgan asarlarini raqamli platformalarga ko‘chirish va vokal ijrolarini zamonaviy ovoz tizimlarida kuylash metodikasini joriy etish lozim.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy raqobatbardoshligini ta’minlovchi va dars ishlanmalari uchun raqamli media-kontent yaratishga xizmat qiluvchi “NKD12604 – Notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash” fani (120 soat) tanlov fanlari tarkibidan chiqarilib, majburiy fanlar blokiga va dastlabki kurslar 1–2 kurs dasturiga o‘tkazilishi qat’iy tavsiya etiladi.

DAW va raqamli musiqa ishchi majmualarini joriy etish kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarni maktabga borgunga qadar zamonaviy raqamli ovoz ishchi majmualari ya’ni, DAW – Digital

ISSN 2181-4309

Audio Workstation: Cubase, Ableton, FL Studio va notalashtirish dasturlari “Sibelius” bilan mukammal ishlash ko‘nikmalari bilan qurollantirish zarur. Bu bitiruvchilarning maktab muhitida o‘quvchilar ehtiyojiga mos zamonaviy dars materiallari va musiqa bezaklarini mustaqil yaratishini ta’minlaydi.

Xalqaro baholash integratsiyasini kuchaytirish orqali o‘quv rejasidagi “Ta’limda baholash” fani doirasida PISA, TIMSS, PIRLS va TALIS tizimlarining faqat nazariy asoslarini o‘rgatish bilan cheklanmay, ularning musiqiy savodxonlik, ritmika, akustika hamda o‘qituvchi faoliyatini monitoring qilish bilan bog‘liq amaliy topshiriqlar bazasini ishlab chiqish va talabalar mustaqil ta’lim yuklamasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. – Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi „Pedagogning maqomi to‘g‘risida“gi O‘RQ-901-son Qonuni. – Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi „2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida“gi PF-134-son Farmoni. – Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi „Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomissements chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi 824-son Qarori. – Lex.uz.
5. Andijon davlat pedagogika instituti Kengashining 2025-yil 27-avgustdagi 1-sonli qarori bilan ma’qullangan “60110600 – Musiqa ta’limi” yo‘nalishi o‘quv rejasi. – ADPI, 2025.
6. OECD (2026). PISA 2025 Assessment and Analytical Framework. OECD Publishing, Paris. p-10

MUNDARIJA

Sobirova Jumagul Erkinjon qizi
MAKTABGACHA TA`LIM YO`NALISHI TALABALARIDA SHAKLLANTIRILGAN FASILITATORLIK QOBILIYATINI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH BOSQICHLARI 258 264

Kosimova Gullola Mullajonovna
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA DARSLIK BILAN ISHLASH KO‘NIKMASINING ROLI 265 267

Qurbonaliyeva Maftunabonu Murodjon qizi
MUSIQA TA’LIMI TIZIMIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHNING BUGUNGI HOLATI VA MUAMMOLARI 268 272

Ibodova Nasiba Komilovna
IBROHIM MO‘MINOV FAOLIYATIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA OLIM SHAXSIDA MA’NAVIY JASORAT MASALASI 273 276

Nishonov Nodir Alimjanovich
FUTUROLOGIK KO’NIKMALARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI 277 282

Дўмонов Б.М., Ашурова К.А.
КИМЁ ФАНИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ 283 287

Хужанов Э.Б, Мухтарова Х.Х.
ИЗ ОПЫТА РАЗРАБОТКИ ВЕБ-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ИНТЕРАКТИВНОЙ ПЛАТФОРМЫ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА «ЭЛЕКТРИЧЕСТВО И МАГНЕТИЗМ» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ 288 295

Astanova Zumradxon Toxirovna
“NURLI MASKAN” MAKTAB-INTERNATLARIDA KO‘ZI OJIZ BOLALARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 296 299

Axunov U.R.
BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY HARAKAT ANIQLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KINESTETIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 300 302

Yusupov To‘lanboy Ibroximovich
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUQORI MALAKALI SPORTCHILARDA PSIXIK SALOMATLIKNI TA’MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI 303 306

Аблазов Элёрбек Эркинжонович
АХБОРОТ ЖАМИЯТИДА МЕДИАМАДАНИЯТ ФЕНОМЕНИ ВА УНИНГ ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИДАГИ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ РОЛИ 307 313

